

.....

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA KO‘CHMA MA’NOGA ASOSLANGAN BADIY TIL VOSITALARINING QO‘LLANILISHI

Gavxar Musayeva

Alfraganus Universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida qo‘llangan ma’no ko‘chish hodisalari va ularning badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy matn obrazlilikini ta’minlovchi asosiy stilistik vositalardan bo‘lgan metafora, metonimiya, sinekdoxa va epitetlarning doston mazmunini ochishdagi o‘rni yoritilgan. Xususan, shoirning qushlar timsoli orqali insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ruhiy izlanishlari va tasavvufiy g‘oyalarni ifodalash mahorati tahlil etiladi. “Lison ut-tayr”da Semurg‘, Hudhud, tovus, kuf, shunqor, kabki kabi obrazlarning ramziy va metaforik xususiyatlari ochib berilib, ular orqali inson xarakteri va ma’naviy kamolot yo‘li badiiy talqin qilinganligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, asarda metonimiya va sinekdoxaning qo‘llanishi, ularning obrazlilik, ixchamlik va falsafiy mazmunni kuchaytirishdagi ahamiyati misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida Alisher Navoiy ma’no ko‘chish vositalaridan yuksak badiiy mahorat bilan foydalanib, poetik tasvirning ta’sirchanligi va estetik qiymatini oshirgani aniqlanadi. Maqola mumtoz o‘zbek adabiyotining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”, ma’no ko‘chishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, ramziy obraz, allegoriya, lingvopoetika, badiiy tasvir vositalari, tasavvufiy mazmun, poetik mahorat.

Badiiy adabiyot tilining eng asosiy xususiyatlaridan biri – bu obrazlilikdir. Obrazlilik esa ko‘pincha ma’no ko‘chishi orqali hosil qilinadi. Ma’no ko‘chish til birliklarining o‘z ma’nosidan boshqa bir ma’no ifodalash uchun ishlatilishidir. Bu usullar kitobxonga emotsional ta’sir uyg‘otadi, tasvirni boyitadi va badiiy matnning estetik qiymatini oshiradi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida so‘zlarning ko‘pma’noliligi xususiyatidan, jumladan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, parafraza va evfemizm

kabi stilistik vositalardan mohirona foydalangan. Uning asarlaridagi soʻz birikmalari koʻrinishidagi metaforalar maʼnoning nozik qirralarini ochib berishga xizmat qilgan.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida til vositasi boʻlmish maʼno koʻchishlarni mohirona qoʻllaganini koʻrishimiz mumkin. Ayniqsa, badiiy soʻz ustasi maʼno koʻchirishning metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi usullaridan keng foydalanadi va ular, oʻz navbatida, shoirning poetik mahoratini koʻrsatadi. Koʻchma maʼno soʻzning asosiy (oʻz) maʼnosidan assotsiativ, oʻxshashlik yoki aloqadorlik asosida ikkilamchi maʼnoga oʻtishini bildiradi, bu badiiy nutqda obrazlilik va taʼsirchanlikni oshiradi. “Lison ut-tayr” dostonida koʻchma maʼnolar qushlar orqali insoniy xislatlarni ramziy ifodalaydi: metafora (Semurgʻ - kamolot timsoli), metonimiya (“doʻkon” - Attor asariga ishora) va allegoriya (tovus - kiborlik).

Metafora (yunoncha metaphora – koʻchirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular oʻrtasidagi maʼlum oʻxshashlik asosida koʻchishidir. Alisher Navoiy asarlarida metaforalar (oʻxshatishlar) uning sheʼriyati va nasriy asarlarining markazida turadi; ular tabiat, inson his-tuygʻulari, falsafiy tushunchalar va diniy-irfoniy gʻoyalarni obrazli ifodalash, asarning badiiy goʻzalligini oshirish, murakkab fikrlarni soddalashtirish va muallifning dunyoqarashini aks ettirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida qushlar, ularning xulq-atvori va tasavvufiy sifatlari orqali insonning maʼnaviy holati, ruhiy yoʻlini ifodalashda qoʻllangan. Bunday metaforalarni asarda koʻplab uchratamiz. Masalan, asardagi har bir qush biror bir insonning xulq-atvorini yoki ruhiy holatini ifodalash ham metaforaga asoslangan. Semurgʻ metaforasi qushlar podshosi, u maʼnaviy kamolot, baxt-saodat va Allohning timsoli sifatida tasvirlanadi. Hudhud esa nurli rahbar, bilimdon shayx va yoʻlboshchi shaklida, qushlarni toʻgʻri yoʻlga boshlovchi obraz sifatida koʻrsatilgan. Misol:

Hudhud ul nuri xiraddin bahramand,

Rohbarligʻ afsaridin sarbaland.

Zotida izzat sharaf meʼrojidin,

Boshida zavar hidoyat tojiddin.

Ushbu baytda, bilimli rahbarning boshidagi tojni metaforik tarzda hidoyat

(to‘g‘ri yo‘l-haqiqiy e‘tiqod yo‘li) Alloh o‘z bandalari uchun ko‘rsatgan eng to‘g‘ri yo‘lga ishora va zevar- boshidagi tojni hidoyat iplari bilan bezatilgani tasvirlanadi.

Misol uchun, Semurg‘ – ma‘naviy kamolot, baxt va Alloh timsoli sifatida, qushlar podshosi metaforasi qo‘llanilgan. Hudhud ham bilimdon rahbar, shayx va yo‘lboshchi sifatida tasvirlangan metaforik obrazdir. Tovus – kibarlik va maqtlanish ramzi, go‘zallik bilan o‘zini ulug‘lash metaforasi. Kuf (boyqush) – molparastlik va nafs quligi timsoli bo‘lsa, Shunqor – boylik-hokimiyatga berilgan shaxs metaforasidir. Shuningdek, kabki – bu zohidlik va dunyodan voz kechish ramzidir.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida metonimiya kamroq bo‘lsada, ammo muhim joylarda qo‘llanilgan. Asosan aloqadorlik yoki qism-butun munosabati orqali tasavvufiy ma‘nolarni ifodalaydi. Metonimiya – bir narsa nomining unga yaqin, bog‘liq bo‘lgan boshqa narsa nomi bilan almashtirilishidir. Metonimiyaning boshqa bir muhim jihati, uning nutqdagi funksiyalaridir. U nafaqat ma‘no aniqligini oshiradi, balki mavzularni va tasvirlarni yanada jonlantiradi.

Bunda biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi. Asarda qushlar jamoasi butun ummatni, Semurg‘ esa Allohni ifodalashi metonimiya usuli sanaladi. Hudhudning nutqi shayx nasihatlariga metonimik bog‘lanib, yo‘l ko‘rsatuvchi rolini kuchaytiradi. Bu usul obrazlilikni, badiiy tasvir va estetik ta‘sirchanlikni oshiruvchi muhim stilistik vositalardan biridir. Masalan:

Hudhud anfosin shakarrez ayladi,

Ul shakarni nuktaomuz ayladi.

Ko‘rdi chun qushlarda andoq iztirob,

Berdi ul majmag‘a bu yanlig‘ javob.

Bu yerda keltirilgan shakarrez so‘zi – bu shirinsuxanlik, xushmuomalalik, shirinlik va nafosat ma‘nolarida kelganini ko‘ramiz. Shu baytning o‘zida yana bir metanimiyani ham ko‘rishimiz mumkin. Majmag‘a, ya‘ni, bir joyga jamlangan, to‘plangan yig‘ilish ma‘nosida kelganini ko‘ramiz. Bu tilni yanada to‘liqroq tushunishga yordam beradi va unda ishlatiladigan so‘zlarning mavjud bo‘lgan barcha ma‘nolarini ochib beradi.

Muallif “Lison ut-tayr” dostonida metonimiyalardan ustalik bilan

foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin:

*Silkinib Chin ichra tushmish bir pari,
Toimish andin zebu farr Chin kishvari.
Rangu naqsh ul parda g‘oyatdin fuzun,
Kim oning sharhida so‘z bo‘lg‘ay uzun.*

Bu baytda metonimiya pari – bu go‘zal bir qushga ishora qilinmoqda. Mumtoz adabiyotda bu kabi metonimiyalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

*Tonglasi chun kelmish el o‘z holig‘a,
Boqib ul bu rang ila ashkolig‘a.
Har kishi bog‘lab taxayyuldin qalam,
Qilmish ul par naqshidin tarhi raqam.*

Sinekdoxa so‘zning leksik ma’nosida butun-qism munosabati asosida ma’no ko‘chishi bo‘lib, qism orqali butunni yoki butun orqali qismni ifodalashga asoslanadi. Sinekdoxa, yunoncha “birga anglamoq” degan ma’noni anglatadi. Bu badiiy adabiyotda asarning ta’sirchanligi va emotsionalligini oshirish, shuningdek, muallifning subyektiv munosabatini bildirish uchun keng qo‘llaniladigan vositadir. Qismni butun yoki butunni qism sifatida ifodalash orqali sinekdoxa badiiy mazmunni yanada chuqurroq va yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, o‘zbek xalq maqollarini lingvopoetik tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinekdoxa “Lison ut-Tayr” dostonida boshqa ko‘chishlarga qaraganda nisbatan kamroq, ammo samarali qo‘llanilgan. Muallif bu ko‘chish usuli yordamida qism orqali butunni ifodalab ruhiy izlanish va jamiyat tanqidini ixchamlashtirgan o‘rinda uchraydi. Qushlar jamoasi (butun ummatni) sifatida tasvirlanib, ularning har biri inson xislatining qismini ifodalaydi: masalan, “tovusning ovozi” (go‘zallik qismi orqali kibarlik butuni). “Qo‘llar” yoki “ko‘zlar” kabi a’zolar butun personajning holatini bildiradi. Hudhudning “tili” (so‘zi) butun rahbarlik rolini, Semurg‘ning “qanoti” esa ilohiy quvvatni sinekdoxik ifodalaydi, chunki ular sayohatni ramziy qamrab oladi. Bu vosita satira va falsafiy chuqurlikni oshiradi.

*Men dog‘i bu yo‘lda jonim boricha,
Jism aro tobu tavonim boricha-
Boringizga aylayin hamrohliq,*

Borcha manzildin beray ogohliq.

Hudhud qushlarga yo'lga chiqishni taklif qilib, o'zini butunlay bag'ishlashga va'da beradi: "jonim boricha" (hayotim davom etguncha), "jism aro tobu tavonim" (tana tirik va quvvatli bo'lguncha) ruhiy va jismoniy sadoqatni ta'kidlaydi. "Hamrohliq" va "ogohliq" esa, yo'ldoshlik va maslahat berishni ramziy bildirib, tasavvufiy sayohatda rahbar (shayx) rolini ko'rsatadi.

Yo'lda har g'am yetsa hamdamliq qilay,

Yoshurun dard o'lsa mahramliq qilay.

Ollingizg'a mushkiliy yetkan mahal,

Sa'y birla aylay ul mushkulni hal.

Hudhud o'zini nafaqat yo'lboshchi, balki do'st (hamdam), sirdosh (mahram) va hamkor (sa'y birla) sifatida ko'rsatib, tasavvufiy sayohatdagi shayxning barcha vazifalarini bajarishga tayyorligini bildiradi. "Gam" va "dard" – ruhiy sinovlar, "mushkulni hal" esa Semurg'ga erishish ramzi bo'lib, jamoaviy izlanish va sadoqatni ta'kidlaydi.

Yuqoridagi misollardan farqli o'laroq, epitet – bu stilistika va poetika termini, antik davrdan ma'lum badiiy-tasviriy vositalardan, narsa va hodisalarga, tushuncha va boshqalarga xos xususiyatlarni obrazli tavsiflashdir. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida epitetlar badiiy tasvir vositasi sifatida keng qo'llanilgan bo'lib, qushlar va tabiat obrazlarini jozibali qilish, tasavvufiy ma'nolarni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Epitetlar ko'pincha, sifatlar shaklida qo'llanilgan. "Nurli hudhud" (bilimdon rahbar), "aziz Semrug'" (ma'naviy podsho) va "go'zal tovu" (kiborlik ramzi). Tabiat epitetlari esa, "shirin bog'lar", "qorong'u vodiylar" kabi ifodalar orqali ruhiy sayohatni ta'kidlaydi. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida eng ko'p ishlatilgan epitetlar qushlar va tabiat obrazlarini yorqinlashtirish uchun keng qo'llanilgan bo'lib, tasavvufiy ma'nolarni kuchaytiradi. Nurli hudhud - bilimdon rahbar va yo'lboshchi ma'nosini anglatadi.

- 1) Aziz Semurg' - ma'naviy podsho va kamolot timsolini ifodalaydi.
- 2) Go'zal tovu - kiborlik va go'zallik bilan maqtlanishni tasvirleydi.
- 3) Molparast kuf - boyqushning nafsparastligini satirik ko'rsatadi.
- 4) Zohid kabki - dunyodan voz kechganlikni ramziy bildiradi.

5) Shirin bog‘lar - ruhiy sayohatdagi jannat timsollarini yorqinlashtiradi.

Har kishi bog‘lab taxayyuldin qalam,

Qilmish ul par naqshidin tarhi raqam.

Barchaning naqshu xayol andeshasi,

Bu ish ondin bo‘lmish ul el peshasi.

Bir kishini qilmish ul naqshi xayol,

Naqshu tasvir amrida sohib kamol.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Lison-ut-tayr” dostonida majoz vositalarining turlicha ko‘rinishlaridan ustalik bilan foydalanilgan. Shuningdek, dostonida majozning simvol, ramz, va allegoriya kabi turlarining keng istefoda etilishi, mazmunga joziba kiritganini va shu tufayli voqealar dinamikasi ta’minlanganini, natijada asar ta’sirchan satira bilan yo‘g‘rilganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari asarda qo‘llanilgan so‘z o‘yinlari, jonlantirish, intoq-nutq bir so‘zni ikki yoki uch ma’noda ishlatish, yashirin ma’no tashish xususiyatlari ham majoz san’atining turlaridan hisoblanadi. Majozning tarkibi hisoblangan bu she’riy san’atlarning har biri qadimiy an’analarga ega. Ma’naviy san’atlar qatoridan o‘rin olgan istiora, iyhom, intoq, tashxis, ittifoq kabi she’riy san’atlar ham majoz ko‘rinishlaridandir.

Uning asarlaridagi so‘z birikmalari ko‘rinishidagi metaforalar ma’noning nozik qirralarini ochib berishga xizmat qilgan. Uning asarlarida, shuningdek, diniy tushunchalar bilan bog‘liq metaforalar ham mavjud bo‘lib, ular makonni bildiruvchi so‘zlar va iboralar orqali ifodalangan bo‘lib, ular lingvistik, madaniy, semantik va stilistik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 12-tom. –Toshkent: Fan. 1996. - 326.
2. Aziz Qayumov. Asarlar. 2-tom. –Toshkent: Mumtoz so‘z. 2008.
3. Dilnavoz Yusupova. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –Toshkent: Akademnashr. 2013. – 271
4. Rahmatov M.M. Alisher Navoiyning g‘azallarida inversiya. // O‘zbek ilshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiynazariy anjumani materiallari. –Toshkent: TDPU (№7), 2014. – B 52-55.
5. Rahmatov M.M. Alisher Navoiyning poetik asarlarida havola bo‘lakli qo‘shma

gaplar // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Toshkent: TDPU, 2012. – B. 52-55.

6. Mamadaliyeva Z. “Lison ut-tayr” dostonidagi ramziy obrazlar tizimi. Filol.fan.nomz.diss. – T., 2011.

7. Қиличев Э., Қиличев Б. Ўзбек тили стилистикаси. – Бухоро. 2004.

8. Jo‘rayeva B. Metaforalarning tilshunoslikda namoyon bo‘lishi va ilmiy ahamiyati. Til va imlo muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: 2023. – B. 33-38.

9. Inomjonovna, I. D., & Husanova, U. (2025, May). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TILNING PAYDO BO ‘LISHIGA OID QARASHLAR. In Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 162-164).

10. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals, 2(9), 493-498.

11. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.

12. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.